



UO'K: 635.61:631.559:631.5

QOVUNNING ERTA PISHAR NAVIARIDAN YUQORI HOSIL OLIISH AGROTEKNOLOGIYASI

Satipov Gaipnazar Matvapayevich 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yusupova Azada Kadambayevna 

stajyor o'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilayotgan erta pishar "Bosvoldi" qovun navini turli ekish sxemasi va o'g'itlar me'yorlarida to'g'ri va optimal oziqlantirishga erishish orqali o'simliklarning generativ rivojlanishini jadallashtirish polda ertaroq hosil olish imkoniyatini amalga oshirish mumkinligini kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: qovun, Bosvoldi(kivi) ekish muddati, o'suv davri, agroteknologiya, hosildorlik, anemiya, texnologiya, eksport, parorat.

Abstract. This article discusses the possibility of accelerating the generative development of plants and achieving earlier harvests by achieving correct and optimal nutrition of the early ripening "Bosvoldi" melon variety grown in the soil-climatic conditions of the Khorezm region using different planting schemes and fertilizer standards.

Keywords: melon, Bosvoldi (kiwi) planting date, growing season, agrotechnology, yield, anemia, technology, export, temperature.

Аннотация. В данной статье рассматривается возможность ускорения генеративного развития растений и получения более ранних урожаев за счет обеспечения правильного и оптимального питания раннеспелого сорта дыни «Босволди», выращиваемого в почвенно-климатических условиях Хорезмской области, с использованием различных схем посадки и норм внесения удобрений.

Ключевое слово: дыня, Босволди(киви), дата посадки, вегетационный период, агротехнология, урожайность, анемия, технология, экспорт, температура.

KIRISH

O'zbekiston qishloq xo'jaligida kuzgi yumshoq bug'doy strategik ahamiyatga ega asosiy donli ekin hisoblanadi. Xususan, 2024/2025-yilgi mavsumda mamlakatimiz bo'ylab 1,225 mln gektar maydonda bug'doy yetishtirilib, jami 8,5



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

mln tonna yalpi hosil olingani sohaning yuqori salohiyatidan dalolat beradi. Biroq, o'zgarib borayotgan iqlim sharoiti va tuproq resurslarining degradatsiyasi don yetishtirish tizimida yangi ilmiy yechimlarni izlashni taqozo etmoqda. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar bevosita davlat siyosatining ustuvor vazifalari bilan uyg'undir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmonida mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish" vazifalar qatoriga kiritilgan. Bu borada mavjud genetik resurslardan oqilona foydalanish, yuqori hosildorlikka ega va don sifati talab darajasida bo'lgan, shuningdek, abiotik va biotik stress omillariga bardoshli genotiplarni seleksiya qilish sohani modernizatsiya qilishda asos vazifasini o'taydi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 apreldagi PF-101-son "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 31 maydagi VMQ-345-son "2025-yil hosildan bug'doy xarid qilish va ichki bozorni don bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston qovunchilikning qadimiy markazlaridan biri bo'lib, yuzlab mahalliy navlar va ularning genetik xilma-xilligi bilan mashhur. Qovun yetishtirishda boy an'analar va katta tajriba to'plangan. O'zbekiston qovunlari o'zining takrorlanmas ta'mi, xushbo'yligi va uzoq saqlanishi bilan ajralib turadi. "Obinovvot", "Qizilgulobi", "Beshak", "Xondak", "Ko'kcha", "Bo'rikovla" kabi navlar xalqaro miqyosda ham tan olingan. Bu navlar mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan. Ibragimov olib borgan tajribalarida sug'oriladigan yerlarda poliz ekinlaridan yuqori hosil olish texnologiyalarida mahalliy navlarning afzalliklarini yoritgan. Ularning genetik potentsiali va o'ziga xos xususiyatlari keyingi seleksiya ishlari uchun qimmatli manba hisoblanadi [4].

Suv tanqisligi O'zbekistonda, ayniqsa Xorazm, Qashqadaryo va Buxoro vohalarida suv resurslarining cheklanganligi qovun yetishtirishda asosiy muammolardan biridir. An'anaviy sug'orish usullari (ariqlar orqali) suvdan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Sug'orish rejimi va uning qovun hosildorligiga ta'sirini o'rganib, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslaganlar[5].

Sug'oriladigan yerlarda tuproq sho'rlanishi ham keng tarqalgan muammo bo'lib, qovun o'simligining o'sishi va hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sho'rlanishga chidamli navlarni tanlash va tuproq melioratsiyasi bu muammoni hal etishda muhimdir. Olib borilgan tajribalarda qovun yetishtirishda tomchilatib



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

sug'orishning sho'rlangan tuproqlardagi ahamiyatini o'rganilgan. Mahalliy dehqonchilikda hozirda ham an'anaviy usullar ustunlik qilmoqda. Ertagi hosil olish uchun plynka ostida yetishtirish, ko'chat usuli, tomchilatib sug'orish va fertigatsiya kabi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etilmoqda[3].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Qovun (*Cucumis melo L.*) O'zbekiston qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan yirik mevali ekinlardan biridir. Ayniqsa, erta pishar qovun navlari, jumladan "Bosvoldi" (kivi) navini ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada "Bosvoldi" navining hosildorligini oshirish uchun qo'llaniladigan agrotehnologik tadbirlar, o'g'itlash va sug'orish me'yorlari, shuningdek, natijalar tahlili ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, Xorazm viloyatidagi agrotexnik sharoitda yuqori hosil olish uchun eng optimal usullarni aniqlashni maqsad qilgan.

Ushbu tajriba 2023-2024 yillarda qovunni ertapishar Bosvoldi, Ko'kcha, Bo'rikalla va Oltin tepa navlarini o'sib rivojlanishiga mineral o'g'itlar bilan birga gidrogel polimerini qo'llash samaradorligi o'rganildi. Ilk bor Xorazm viloyatida qovunni qurg'oqchilikka chidamliligini oshirishda mineral o'g'itlardan gektariga azot-220 kg, fosfor-150 kg va kaliy-60 kg fonda gidrogelning turli xil me'yorlari bo'yicha oziqlantirilgan variantlari taqqoslanib, sinab ko'rildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Bosvoldi (kivi) - Ertapishar qovun navi, o'rtacha kattalikda, 20-23 sm, og'irligi 4-7 kg. Pusti o'rtacha qalinlikda, sirti sal tilimtilim, to'rsiz, rangi oqishsariq. Ustidagi gullarining chetlari notekis chizikli, keng ochyashil tasmaimon. Eti 4,5-5 sm, och yashil, g'ovak, sershira. Tarkibida 7 - 8,6% kand, 3,5-4,5% saxaroza, 8,5 - 10% quruq modda bor. Urug'xonasi o'rtacha kattalikda, urug'i yirik, tuxumsimon, ochsarg'ish. Ekilganda unib chiqqandan keyin 85-90 kunda pishadi. Hosildorligi 170-250 ts/ga. Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlarida Bosvoldining 2417 navi ekiladi.

1-jadval

Dala tajriba tizimi

№	Navlar	Ekish sxemasi (pushtalar orasi x o'simlik orasi)	Qaytariqlar soni	Tup soni ming/ga
1-variant: NPK (200:120:90 kg/ga)				
1.1	Bosvoldi	150 x 50 sm	4	13.3
1.2	Bosvoldi	150 x 70 sm	4	9,5
2-variant: NPK (250:140:90 kg/ga)				
2.1	Bosvoldi	150 x 50 sm	4	13,3
2.2	Bosvoldi	150 x 70 sm	4	9,5





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI


Qovun nihollari aprel oyining birinchi o'n kunligida ekildi. Agrotexnik tadbirlar - dalani ekishga tayyorlash, sug'orish, kultivatsiya, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash - mintaqada qabul qilingan agrotexnik tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi(1-jadval).

Keltirilgan jadvalda dala tajribasining sxemasi, ya'ni o'rganilgan variantlar, ekish sxemalari, qaytariqlar soni hamda o'simlik zichligi aks ettirilgan. Tajriba Bosvoldi navi asosida olib borilgan bo'lib, unda ikki xil mineral o'g'it me'yori qo'llanilgan.

Birinchi variantda o'g'it me'yori NPK 200:120:90 kg/ga ni tashkil etib, ushbu sharoitda o'simliklar ikki xil ekish sxemasida joylashtirilgan: 150 × 50 sm va 150 × 70 sm. Mazkur sxemalarda o'simlik zichligi mos ravishda 13,3 ming tup/ga va 9,5 ming tup/ga ni tashkil qilgan.

Ikkinchi variantda esa o'g'it me'yori oshirilib, NPK 250:140:90 kg/ga miqdorida qo'llanilgan. Bu variantda ham yuqoridagi ikki xil ekish sxemasi saqlanib qolgan bo'lib, o'simlik zichligi birinchi variantdagiga mos ravishda 13,3 ming tup/ga va 9,5 ming tup/ga bo'lgan.

Tajribaning barcha variantlari 4 martadan qaytarilgan, bu esa natijalarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tadqiqotda asosiy e'tibor o'g'it me'yori va ekish zichligining o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan.



Hosildorlik ko'rsatkichlari.

Turli qovun navlarining hosildorlik ko'rsatkichlari, jumladan ko'chat soni, bir tupdagi meva soni, bitta mevaning o'rtacha og'irligi va gektar hisobidagi umumiy hosildorlik ko'rsatkichlariga NPK o'g'it me'yorlari va ekish sxemasining ta'sirini



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

tahlil qilinganda tajriba natijalariga ko'ra, "Kivi" navining hosildorlik ko'rsatkichlari ko'chat soni ekish sxemasiga bog'liq ravishda 150x50 sm sxemada 13333 tup/ga, 150x70 sm sxemada esa 9524 tup/gani tashkil etgan. N1 (200:120:90 kg/ga) o'g'it me'yori qo'llanilganda, 150x50 sm ekish sxemasida bir tupdagi meva soni 0.9 dona, bitta mevaning o'rtacha og'irligi 2.5 kg bo'lib, umumiy hosildorlik 30 t/ga ni tashkil etgan. 150x70 sm ekish sxemasida esa bir tupdagi meva soni 1.1 dona, meva og'irligi 2.8 kg bo'lib, hosildorlik 29.5 t/gani tashkil etgan. NPK o'g'it me'yori N2 (250:140:90 kg/ga) ga oshirilganda, 150x50 sm sxemasida bir tupdagi meva soni 1.05 dona, bitta mevaning o'rtacha og'irligi 2.7 kg, umumiy hosildorlik 37.5 t/gani tashkil qilgan. 150x70 sm sxemasida esa bir tupdagi meva soni 1.25 dona, meva og'irligi 2.9 kg bo'lib, hosildorlik 35 t/gani tashkil etgan. "Kivi" navida NPK o'g'it me'yorining oshirilishi (N2) har ikkala ekish sxemasida ham bir tupdagi meva soni va bitta mevaning o'rtacha og'irligini oshirish hisobiga umumiy hosildorlikni sezilarli darajada oshirgan. Eng yuqori hosildorlik (37.5 t/ga) 150x50 sm ekish sxemasida, yuqori (N2) o'g'it me'yori qo'llanilganda kuzatilgan. Bu, o'simlikning oziqlantirishga bo'lgan talabi qondirilganda, uning hosildorlik ko'rsatkichi to'liqroq ochilishini tasdiqlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan dala tajribalari natijalariga ko'ra, ertapishar Bosvoldi (Kivi) qovun navining hosildorligi ekish sxemasi va mineral o'g'it me'yorlariga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan NPK o'g'it me'yorlarining oshirilishi (200:120:90 kg/ga dan 250:140:90 kg/ga ga) o'simlikning o'sishi va rivojlanishini jadallashtirib, hosildorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi.

Natijalarga ko'ra, yuqori o'g'it me'yori (N₂) qo'llanilganda har ikkala ekish sxemasida ham bir tupdagi meva soni va mevaning o'rtacha og'irligi ortgani kuzatildi. Eng yuqori hosildorlik - 37,5 t/ga - 150x50 sm ekish sxemasida, ya'ni o'simlik zichligi yuqori bo'lgan sharoitda qayd etildi. Shu bilan birga, 150x70 sm sxemada mevalar yirikroq va son jihatdan ko'proq shakllangan bo'lsa-da, umumiy hosildorlik ko'rsatkichi biroz past bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bosvoldi navining biologik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun optimal oziqlanish sharoitlarini yaratish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, mineral o'g'itlarning muvozanatli va yetarli miqdorda qo'llanilishi hosildorlikni oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, Xorazm viloyati sharoitida Bosvoldi qovun navini yetishtirishda 150x50 sm ekish sxemasi hamda NPK 250:140:90 kg/ga me'yorda o'g'itlash eng samarali agrotexnologik variant sifatida tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv yuqori va barqaror hosil olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni

3. Abdullayev M.A. (2017). Qovun yetishtirishda tomchilatib sug'orish va fertigatsiyaning ahamiyati. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, №4, B. 25-27.

4. Ibragimov SH.S., Amanov Z.A. (2018). Sug'oriladigan yerlarda poliz ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish texnologiyasi. Agrobiologiya jurnali, №1, B. 15-18.

5. Mirzayev U.T., Raximov A.N. (2021). Qovun yetishtirishda sug'orish rejimining hosildorlikka ta'siri. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, №4, B. 30-34.

6. <http://www.agro.uz/uzb/iqtisodiyot/>

7. http://sibsadovod.ru/arbuz_stolovyi.html